DEKLARATSIYA
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
«Iqlim o'zgarishi va Orol dengizi inqirozi: kasaba uyushmalarining munosib mehnat va jamoat salomatligini ta'minlashdagi roli».

25-26 mart 2025-yil — Mo‘ynoq, Qoraqalpog‘iston
O‘zbekiston Respublikasi

1992-yil 28-avgustda Nukus shahrida (Qoraqalpog‘iston) Orol va Orolbo‘yi muammolari bo‘yicha birinchi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazilgani ramziy ma’noga ega. Yakunida Orol muammosi bo‘yicha xalqaro fond tashkil etish zarurligi to‘g‘risida **«Markaziy Osiyo davlatlari va jahon hamjamiyatining boshqa mamlakatlari Prezidentlari, parlamentlari va jamoatchiligiga Murojaatnoma»** qabul qilingan.

1993-yilda konferensiyada qabul qilingan Kommyunike asosida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida «Toshkent deklaratsiyasi» imzolanib, Orolni saqlab qolish xalqaro jamg‘armasini tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilingan.

1997-yil fevral oyida Olmaota shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yig‘ilishida «Olmaota deklaratsiyasi» imzolandi, unga muvofiq Orol dengizi muammolari bilan bog‘liq ekologik xavfsizlik kompleks dasturini ishlab chiqish to‘g‘risida qaror qabul qilingan.

Orol dengizi inqirozi jahon hamjamiyatining kechiktirib bo‘lmaydigan qarorlar qabul qilishni, uzoq istiqbolga mo‘ljallangan rejali harakatlarni talab qiladigan birinchi darajali vazifalaridan biridir.

Orolni to‘yintiradigan Amudaryo va Sirdaryo daryolarining suv resurslaridan o‘ylamasdan, isrofgarchilik bilan foydalanish natijasida bugungi kunda suv yuzasining 10 foizi qoldi. Dengiz yuzasining 60 ming kvadrat kilometrdan ortiq maydoni suvsizlanib, qo‘shni davlatlar - Qozog‘iston, Turkmaniston va ayniqsa O‘zbekistonning 50 milliondan ortiq aholi yashaydigan hududlarida ekologik falokatga olib keldi.

Ma’lumki, Orol dengizi XX asrning 60-yillar ikkinchi yarmidan boshlab quriy boshladi va sobiq dengiz tubining keskin cho‘llanish jarayoniga sabab bo’ldi. Qurigan qismi yosh kontinental yuza bo‘lib, millionlab tonna tuzlar va pestitsidlar to’plangan arid tekislikka aylangan.

Mintaqada yiliga 300 kun davomida kuchli shamol bo‘ronlari bo‘lib turadi, ular har yili 150 million tonnagacha qum va tuzlarni minglab kilometrlarga olib boradi, va izlanishlar natijasida Antarktida muzliklari, Norvegiya tog‘lari va qit’aning boshqa chekka hududlarida aniqlangan.

Ko‘tarilgan changlar quyosh radiatsiyasini intensiv ravishda yutib, uning yer yuzasiga tushishini kamaytiradi va atmosferaning quyi qatlamlarini qizdiradi. Natijada, tutash hududlarda yiliga taxminan 200 kun davomida havo harorati 50 darajadan yuqori va 100 kundan ortiq 40 darajadan past bo‘ladi.

Ilmiy tadqiqotlar natijasida aniqlangan faktlar shundan dalolat beradiki, dengiz qurishi bilan bog‘liq muammolar ilgari Markaziy Osiyo mamlakatlariga tegishli bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda global, jahon ahamiyatiga moliq muammoga aylandi.

Ekologik vaziyatning halokatli yomonlashuvi aholi salomatligiga, demografik va migratsiya jarayonlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. **Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti xulosalariga ko‘ra, aholi o‘rtasida kasallanish 25-30 foizga yuqori, qondagi zaharli moddalar miqdori Yevropa mamlakatlaridagi ko‘rsatkichlardan 3-5 barobar ko‘p. Kasalliklarning surunkalashuvi, sil kasalligining ko‘payishi kuzatilmoqda.**

Ilgari mavjud bo‘lgan o‘simlik va hayvonot dunyosi deyarli yo‘q bo‘lib ketdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida «Orol dengizi qurishining oqibatlarini bartaraf etish bugungi kunda xalqaro sa’y-harakatlarni faol birlashtirishni talab qiladi» deb ta’kidladi.

2017-yilda Orol fojiasi hududiga tashrif buyurgan BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish «Orol dengizi insoniyat tomonidan sayyoraning vayron bo‘lishining ramzi bo‘lsin va men O‘zbekistonda ko‘rgan fojialar takrorlanmasligi uchun butun xalqaro hamjamiyatni iqlim bo‘yicha Parij bitimini bajarishga safarbar qilishda barchamiz uchun saboq bo‘lsin» deb ta’kidlagan edi.

2023-yilda Tojikiston Respublikasida Xalqaro jamg‘arma ta’sischi davlatlar rahbarlarining uning tashkil etilganining 30 yilligiga bag‘ishlangan navbatdagi yig‘ilishida Orolbo‘yi mintaqasidagi iqtisodiy, ijtimoiy, gumanitar, ekologik muammolarni hal etishga qaratilgan Dushanbe bayonoti qabul qilindi.

Mintaqaviy hamkorlikning keng ko‘lamli masalalarini batafsil muhokama qilish natijasida davlat rahbarlari suv resurslari Markaziy Osiyoning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi o‘rin tutishini, transchegaraviy suv hamkorligi esa barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, tinchlik, barqarorlik, ekologik, oziq-ovqat va energetik xavfsizlikni ta’minlash, aholi salomatligini saqlash, migratsiya jarayonlarini kamaytirish, iqlim barqarorligiga erishishning muhim tarkibiy qismi ekanini ta’kidladilar.

Orolni Qutqarish Xalqaro Jamg‘armasi va uning ijroiya qo‘mitasi asosiy va noyob mintaqaviy institut ekani alohida bildirildi. Uning salohiyatini mustahkamlash va xalqaro maydondagi nufuzini oshirish, aholi salomatligini mustahkamlash, qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirishga davlat va xalqaro jamoat tashkilotlarini keng jalb etish zarurligi ta’kidlandi.

O‘zbekiston tashabbusi bilan 2018-yilda BMT raxnamoligida Orolbo‘yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p sheriklik asosidagi Trast fondi tashkil etildi, uning doirasida ekologik ofat zonasidagi vaziyatni yaxshilash uchun mablag‘lar to‘planmoqda.

O‘zbekiston rahbariyatining izchil sa’y-harakatlari natijasida so‘nggi yillarda dengizning qurigan tubida 1 million 850 ming gektar maydonda to‘qayzorlar barpo etildi. Murakkab tabiiy sharoitda 6 ming tonnaga yaqin cho‘l o‘simliklari urug‘ini ekishga muvaffaq bo‘lindi, bu uchun 20 ming ish o‘rni yaratilgan, 5 mingta texnika, jumladan, samolyotlar jalb qilingan.

Umuman, Qoraqalpog‘iston bo‘yicha so‘nggi 2 yilda 200 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Ta’kidlash joizki, 2025-yil O‘zbekistonda «Atrof-muhitni asrash va «yashil» iqtisodiyot yili» deb e’lon qilindi. Ayni paytda 200 ming gektar maydonda ishlar olib borilmoqda, ikki ming tonnadan ortiq cho‘l o‘simliklari urug‘lari tayyorlandi, mamlakatda har yili 200 million tup daraxt va buta ko‘chatlarini ekish bo‘yicha umummilliy dastur qabul qilindi, **va Orolbo‘yining yana 4 million gektar cho‘l yerlarini o‘zlashtirish lozimligi ta’qidlanmoqda.**

Keng ko‘lamli o‘rmon-melioratsiya ishlari, ekotizimlar va suvli-botqoq yerlarni saqlab qolish, Orol dengizining bir qismini tiklash, Qozog‘istonning qirg‘oqbo‘yi hududlarida suv chiqarish kanallari va to‘g‘onlar qurilishi orqali ijobiy natijalari qayd etilib, bu boradagi ishlar jadal davom ettirilmoqda.

Tabiiy resurslarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, xususan, muzliklar va umuman suv resurslarini asrab-avaylash, kam uglerodli iqtisodiyotni barpo etish, resurslarni tejaydigan va «yashil» texnologiyalarni joriy etish sohasida hamkorlikni kengaytirish va muvofiqlashtirish masalalari davlat idoralari va jamoat tashkilotlarining kun tartibining markazida turibdi.

Suv bilan bog‘liq kasalliklarning oldini olishda barcha uchun xavfsiz va barqaror ichimlik suvi, sanitariya va gigiyena xizmatlaridan umumiy va teng foydalanishni ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2010-yil 28-iyulda «xavfsiz va toza ichimlik suvi, hamda sanitariya sharoitlariga bo‘lgan huquqni to‘laqonli hayot kechirishi va barcha inson haqlari uchun zarur bo‘lgan ajralmas huquqi sifatida» (A/RES/64/292) e’tirof etuvchi tarixiy rezolyutsiyani qabul qilgan edi. Shu munosabat bilan, urg’u berilgan sohalardagi tadbirlarning tibbiy-sanitariya jihatini kuchaytirishga qaratilgan xizmatlarni saqlash va kengaytirishga maqsadli investitsiyalarni jalb qilish nihoyatda dolzarbdir.

Mehnat bozorida barcha uchun munosib mehnat va adolatli o‘tishni ta’minlaydigan ijobiy natijalarga erishishga intilish, hech kimni e’tibordan chetda

qoldirmaslik uchun mehnat sohasida faoliyat yurituvchi barcha ijtimoiy sheriklarning doimiy ishtirokini, ish o‘rinlarini yaratish, ijtimoiy himoya, ijtimoiy muloqotni mustahkamlash, mehnatni muhofaza qilish talablarini so‘zsiz bajarish, kasbiy ko‘nikmalarni oshirish, hayotiy korxonalarni rivojlantirish, mehnat qilish huquqini ta’minlash bo‘yicha aniq strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishni talab qiladi.

Yuqoridagilarga asoslanib, Xalqaro Mehnat Tashkilotining «Bandlik yo‘lida iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash» tashabbusi manfaatdor muassasalarning hozirgi va kelajakdagi tezkor harakatlari uchun zamin yaratdi. Iqlim inqirozi sharoitida aholi salomatligi va munosib mehnatni ta’minlash uchun asosiy mehnat huquqlarini saqlanishiga asoslangan adolatli mehnatga o’tishni ta’minlaydigan siyosati zarur.

Ushbu tashabbusning dolzarbligi va maqsadga muvofiqligi konservativ baholash natijalari bilan yana bir bor tasdiqlanadi. Global haroratning Selsiy bo‘yicha 1,5 darajaga ko‘tarilishi prognozlari va mehnat resurslari sohasidagi hozirgi tendensiyalar shuni ko‘rsatadiki, agar 2030-yilda isishning hozirgi modellari saqlanib qolsa, issiqlik stressi tufayli butun dunyo bo‘ylab umumiy ish vaqtining 2,2 foizi yo‘qotiladi - bunday unumdorlikning yo‘qolishi to‘liq ish vaqti bilan 80 million ish o‘rniga teng.

Iqlim o‘zgarishi, haroratning ko‘tarilishi va issiqlik stressidan Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari eng ko‘p zarar ko‘radi, 2030-yilda prognoz qilingan yo‘qotishlar ish vaqtining 5,3 foizini tashkil etadi, bu taxminan 43 million to‘liq ish vaqtiga to‘g‘ri keladi.

Kasaba uyushmalari tashkilotlari «Milliy miqyosda belgilanadigan hissalar» doirasida Parij bitimiga muvofiq iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va ularga moslashish bo‘yicha harakatlar rejasining amalga oshirilishini monitoring qilish tizimini ishlab chiqishi, bunda asosiy e’tiborni adolatli o‘tish tamoyillariga erishishga qaratishi maqsadga muvofiq.

BMTning iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi doiraviy konvensiyasi va uning Parij bitimi, Xalqaro Mehnat Tashkilotining «Barcha uchun ekologik barqaror iqtisodiyot va jamiyatga adolatli o‘tishning yetakchi tamoyillari»da qabul qilingan, munosib mehnat dasturining to‘rtta asosiy yo‘nalishini belgilab beruvchi, keng qamrovli siyosiy asosni, shuningdek, Jamoat xizmati Internatsionali Ijroiya kengashining 1-sonli rezolyutsiyasining 4.2-bandi va Buxarest shahrida bo‘lib o‘tgan Jamoat xizmati Internatsionali Yevropa Federatsiyasining 11-Kongressida tasdiqlangan Harakatlar dasturining o‘tishning ekologik va ayniqsa ijtimoiy muammolarini hisobga oluvchi C1 bandining strategik harakatlarini amalga oshirish masalalari diqqat markazida bo‘lishi kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Konferensiya kasaba uyushmalari tashkilotlariga quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirishga e’tibor qaratishni tavsiya etadi:

1. Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi tashkil etilganining 30 yilligini nishonlash bo‘yicha muvaffaqiyatli o‘tkazilgan tadbirlar, shuningdek, **Orolbo‘yi mintaqasidagi**

iqtisodiy, ijtimoiy, gumanitar, ekologik xarakterdagi xalqaro muammolarni hal etish maqsadida 2023-yil 22-24-mart kunlari Nyu-York shahrida Tojikiston Respublikasi hamraisligida bo‘lib o‘tgan BMTning suv resurslari bo‘yicha konferensiyasining samarali natijalari e’tirof etilsin. BMTning tashkilotlari, muassasalari va moliyaviy institutlari bilan hamkorlikni yanada faollashtirish zarurligini ta’kidlaymiz.

Rivojlanish bo‘yicha xalqaro hamkorlar va donor mamlakatlarga Orol dengizi havzasi muammolarini hal etishda ko‘rsatilayotgan ko‘mak uchun minnatdorlik bildirgan holda, ularni mintaqa mamlakatlarining barqaror rivojlanishiga ko‘maklashish maqsadida hamkorlikni kuchaytirishga chaqiramiz.

2. BMT Bosh Assambleyasining 82-yalpi majlisida qabul qilingan «Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi o‘rtasidagi hamkorlik» A/RES 72/273-sonli rezolyutsiyani keng targ‘ib qilish va jahon hamjamiyati kasaba uyushmalari e’tiboriga yetkazish bo‘yicha samarali chora-tadbirlarni ko‘rishga chaqirilsin. Ushbu deklaratsiya BMT tizimidagi ixtisoslashtirilgan muassasalar, tashkilotlar, dasturlar, jamg‘armalar, shuningdek, xalqaro moliya institutlariga, BMT huzuridagi Ko‘p sheriklik trast jamg‘armasi va Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi bilan hamkorlikni rivojlantirish va mustahkamlashni tavsiya etadi.

3. Milliy ijtimoiy hamkorlar bilan birgalikda Orol dengizi havzasi mamlakatlariga yordam ko‘rsatish bo‘yicha Harakatlar dasturi va Markaziy Osiyo mamlakatlarining barqaror rivojlanishi uchun atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha mintaqaviy dastur doirasida tashqi donorlarni jalb qilgan holda qo‘shma loyihalar va dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ta’minlash, suv resurslarini boshqarish uchun ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga, kelishilgan chora-tadbirlarni qabul qilish zarurligiga e’tibor qaratish muhimdir.

1992-yilda «Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risida»gi maxsus xalqaro konferensiyada qabul qilingan BMTning Doiraviy konvensiyasini amalga oshirish maqsadida kasaba uyushmalari issiqxona gazlarini kamaytirish bo‘yicha monitoring, maslahat berish va korxonalar faoliyatida ishtirok etish tizimini ishlab chiqishi zarur.

4. Davlat organlari va ish beruvchilar bilan birgalikda chiqindilarni qisqartirish, atrof-muhitni karbonsizlantirish va iqlim o‘zgarishiga moslashish bo‘yicha «Milliy miqyosda belgilanadigan hissalar» doirasida qabul qilingan va tasdiqlangan rejaning amalga oshirilishini monitoring qilishda faol ishtirok etish. Bunda diqqat-e’tiborni nafaqat ekologik, ayniqsa, o‘tishning ijtimoiy muammolarini hisobga oladigan barcha uchun ekologik barqaror iqtisodiyot va jamiyatga adolatli o‘tishning XMT tomonidan qabul qilingan rahbariy tamoyillarini bajarishga, sog‘liqni saqlash muassasalari xodimlariga munosib mehnat sharoitlarini yaratishga qaratish lozim. Barcha yangi «Milliy miqyosda belgilanadigan hissalar» ijtimoiy hamkorlar bilan sifat jihatidan kelishilgan siyosat va adolatli o‘tish choralari bilan to‘liq bo‘limlarni o‘z ichiga olishi kerak.

5. Iqlim o‘zgarishi va adolatli o‘tish jarayonida o‘z siyosati va harakat rejalarini ishlab chiqish, barqaror rivojlanish, ijtimoiy muloqot, ijtimoiy himoya, mehnatkashlar huquqlari va bandlik, xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish bo‘yicha milliy siyosatni

ishlab chiqish, amalga oshirish va monitoring qilishda faol ishtirok etish, kam uglerodli hayot faoliyatiga o‘tishda xodimlarga zarur xizmatlarni tashkil qilib taqdim etishni ta’minlash zarur.

6. Iqlim o‘zgarishi zonasida migratsiya jarayonlarini kamaytirish maqsadida chuqur, har tomonlama tahlillar asosida manfaatdor davlat organlari va idoralari bilan birgalikda barqaror yangi ish o‘rinlarini yaratishga ko‘maklashish zarur.

7. Murakkab iqlim sharoitlarini, ayniqsa, yoz-qish davrida harorat rejimining keskinligini hisobga olgan holda monitoring o‘tkazish va ish beruvchilar bilan birgalikda ish xonalarini konditsiyalash, munosib mehnat va turmush sharoitlarini yaratish, sifatli ichimlik suvi bilan ta’minlash choralarini ko‘rish.

8. Kasaba uyushmalarining huquq va mehnat inspeksiyalari jamoatchilik nazorati huquqi asosida BMT rezolyutsiyalari, XMTning tegishli Konvensiyalari tamoyillari, shuningdek, Jamoat xizmati Internatsionali Ijroiya kengashining 1-sonli rezolyutsiyasi 4.2-bandi va Buxarest shahrida bo‘lib o‘tgan Jamoat xizmati Internatsionali Yevropa Federatsiyasining 11-Kongressida tasdiqlangan Harakatlar dasturining C1-bandi, sanitariya qonunchiligi, Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining qoidalari va talablari bajarilishini har tomonlama va tizimli ravishda o‘rganish va tahlil qilishga chaqirilsin.

9. Jamoat xizmati Internatsionali va uning Yevropa Federatsiyasining a’zo mamlakatlari kasaba uyushmalari ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi milliy qonunchilikni takomillashtirishda faol ishtirok etishga chaqirilsin.

10. Jamoa shartnomalari va kelishuvlarida, ayniqsa, iqlim va ekologik sharoitlari og‘ir bo‘lgan mintaqalarda xodimlar uchun qo‘shimcha himoya choralari va imtiyozlar nazarda tutilsin.

11. Konferensiya suv resurslarini muhofaza qilish, insonning suvga bo‘lgan huquqini amalga oshirish, adolatli o‘tish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha mintaqaviy yoshlar harakatlari faoliyatini kuchaytirish muhimligini ta’kidlaydi.